




ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

# 2022

MAY  
№ 40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
25-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-25**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Aminboyeva Lobar</b>	
OROL TABIIY GEOGRAFIK OKRUGI .....	7
<b>2. Abdullayeva Venera Yeraliyevna</b>	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRUVCHI METODLAR .....	9
<b>3. Boliyeva Sanobar Bahranovna, Sadakbayeva Venera Serekovna</b>	
MAVZULI KARTALASHTIRISH. XALQARO MAVZULI KARTALAR .....	11
<b>4. Taniyeva Guli Fayzullayevna</b>	
"DARYOLAR" MAVZUSINI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR.....	13



## ГЕОГРАФИЯ

### OROL TABIIY GEOGRAFIK OKRUGI

**Aminboyeva Lobar**

32-sونumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Tel: +998937504117

Elektron pochta:aminboyevalobar886@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Orolning tabiiy yuzilishi, avvalgi nomlari, ko'lga suvning quyilishi, cho'zilishi, temperaturasi haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Orol dengizi, Qizilqum, Qozog'iston, Ustyurt okrugi, tuz yomg'iri, Oks, Kurdor, O'rta Osiyo.

Orol tabiiy geografik okrugi Turon tekisligining markaziy qismida, Ustyurt okrugi bilan Qizilqum okrugi orasida joylashgan. U shimolda Qozog'iston bilan, janubi sharqda Qizilqum, janubda Quyi Amudaryo, g'arbda Ustyurt okrugi bilan chegaralanadi.

Tabiiy geografik o'rganilish va paydo bo'lish tarixi. Orol va Orolbo'yi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni miloddan avvalgi II asrda yashagan geograf Klavdiy Ptolemey yozib qoldirgan. U tuzgan „Dunyo xaritasi”da hozirgi Orol dengizi o'rnida „Oks” ko'li tasvirlangan. IX asrda yashagan arab olimi Ibn Xurdodbex Amu-Sirdaryo „Kurdor” ko'liga quyilgan desa, X asrda yashagan Al-Mas'udiy hozirgi Orol ko'lini „Jurjoniya”, Beruniy esa „Xorazm” ko'li deb atagan. Fransuz geografi Delil 1723-yili tuzgan xaritasida Orol botig'ida joylashgan suv havzasini birinchi marta „Orol” deb nomlagan.

Orol dengizining tubi tektonik harakatlar ta'sirida cho'kishi natijasida paydo bo'lgan. Orol cho'kmasining ilk Amudaryo va Sirdaryo suvi bilan to'lishi eramizdan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida ro'y bergen. So'ngra tabiiy omillar ta'sirida (Amudaryo va Sirdaryo suvining ko'payib, ozayib turishi ta'sirida) Orol dengizi suv sathi goh pasayib, goh ko'tarilib turgan. So'nggi 200 yil (1961-yilga qadar) ichida Orol dengizining suv sathi uch marta ko'tarilib, ikki marta pasaygan.

2005-yildan so'ng Orolga Amudaryo suvining yetib bor- masligi oqibatida 50 ming km 2 qismi quruqlikka aylanib, eol qum relyefi shakllanib, ko'l qismida tipik sho'rxoklar mintaqasi vujudga keldi. Shunday qilib, sobiq dengizning qurigan qismida o'ziga xos tabiiy komponentlarga ega bo'lgan yangi „Orolqum” cho'li paydo bo'ldi. Orolning qurigan qismida bir-biridan ajralib qolgan uchta — Shimoliy, Sharqiy va G'arbiy Orollar saqlanib qolgan edi. Lekin so'nggi yillarda bug'lanish tufayli Sharqiy Orol suv sathi pasayib, hozir qurib qolib, o'rni sho'rxok, sho'rxok-botqoqqa aylanib qoldi. G'arbiy qismidagi nisbatan chuqr ko'l ma'lum vaqtgacha saqlanib qolishi mumkin.

Orol dengizining qurigan qismi tuz makoniga aylanib, atrof muhitga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shamol tuzlarni to'zitishi oqibatida Orolbo'yi hududlariga tuz yog'ini yog'moqda. Bu esa iqtisodiyotga, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etmoqda. Orolning qurigan qismidan tuz aralash chang-to'zon uzoq masofalarga, hatto, O'rta Osiyo tog'laridagi muzliklar yuzasiga tushib, uning erishini tezlashtirmoqda. Tuz yomg'iri, ayniqsa, unga yaqin bo'lgan hududlarga katta iqtisodiy va ekologik zarar keltirmoqda.

Okrugning yerusti tuzilishi. Orolning qurigan qismi yerusti tuzilishiga ko'ra atrofidagi Orol botig'i tomon pasayib boruvchi tekislikdan iborat. Lekin botiqning o'rta qismida joylashgan sobiq Vozrojdeniye va Borsakelmas orollari Orolning qurigan qismidan terrasasimon shaklda ko'tarilib turuvchi qadimiy tekislik hisoblanadi.

Iqlimi, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi. Orol tabiiy geografik okrugi kontinental iqlim xususiyatiga ega bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq va quruq, yillik o'rtacha harorat 7,5-10,5°C



ni tashkil etadi. Qishda okrug shimoli-sharqiy va shimoliy sovuq va quruq shamollar ta'sirida bo'lib, harorati pasayib ketadi. Orol okrugida yanvarning o'rtacha harorati Mo'ynoqda  $-5$ – $-7^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. Qishda ba'zi yillari eng past harorat  $-32^{\circ}\text{C}$  ga yetadi. Yozda iyulning o'rtacha harorati Mo'ynoqda  $+28^{\circ}\text{C}$  bo'lib, issiq harorat  $+38$ – $+42^{\circ}\text{C}$  ga yetadi.

So'nggi yillarda Orol suv sathining pasayishi natijasida qish sovib, yozda harorat ko'tarilib bormoqda. Mo'ynoqda 1960-yili yanvarning o'rtacha harorati  $-4^{\circ}\text{C}$  bo'lgan bo'lsa, hozir  $-8^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etmoqda.

Okrugda may oyidan boshlab shimoli g'arbdan, g'arbdan esuvchi havo massasi ta'sirida havo ilib, yog'ingarchilik boshlanadi. Okrugga yiliga o'rtacha 80-100 mm atrofida yog'in yog'ib, uning 45 foizi bahorga, 10-11 foizi yozga to'g'ri keladi.

Tuproqlari. Orol dengizi o'mida suvdan bo'shagan hududlarning tuproq qoplami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslikni tuproqda tuzlarning yig'ilishi, ularning sho'rashganligi va katta hududda sho'rxoklarning mavjudligida ko'rish mumkin. Okrug hududining 80–90 foiz qismidagi tuproqlar o'ta darajada sho'rashgan. Orlning chekinishi tufayli eng avval quruqlikka aylangan, eol qum relyefi mavjud bo'lgan hududlarida qumli cho'l, qumoq va taqirsimon sho'rxoklar joylashgan.

Okrug tabiatini muhofaza qilish. Orlning chekinishi oqi- batida vujudga kelgan quruqlik yuzasidan qum ko'chkilari va tuz aralash chang-to'zonlar tarqalib, havoni ifloslab „tuz yomg'iri” yog'dirmoqda. Bu, o'z navbatida, atrof-muhit tabiatini ifloslab, ham iqtisodiy, ham ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli bu jarayonning oldini olib, tabiatni muhofaza qilish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak: qum ko'chkilarining oldini olish uchun shamol kuchi ta'sirini kamaytirish maqsadida har xil to'siqlar, xususan, ixotalar, kulisalar barpo etish; eol relyefi mavjud bo'lgan va tuz to'zishi mumkin bo'lgan hududlarda fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish; yaylovlardan chorvachilikda foydalanishdan oldin muhofaza choralarini amalga oshirish; Orlning qurigan qismi landshaftini ma'lum joyda tabiiy holicha muhofaza qilish hamda alohida hudud sifatida (kelajak avlod uchun) saqlab qolish.

Ushbu monografiya O'rta Osiyo, shu jumladan Mualliflar dastavval Orlni tabiiy geografik o'rganish tarixi, Orol va Orolbo'yida ekologik muammolarni kelib chiqishi, buning natijasida tabiiy geografik sharoitdag'i o'zgarishlar, ularning hozirgi holati mukammal tahlil qilinib, yoritilgan va e'tiborga sazovor xulosalarga kelingan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Vaxobov X., Zayniddinov A. “Geografiya o'qitish metodikasi” 1-qism. Ma'ruzalar matni – T. Universitet, 2009
2. Qurbonniyozov R., “Geografiya ta'lim metodikasi” – Urganch. 2002
3. Ijtimoiy axborot ta'lim portoli: [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz) ; [www.Geografiya.uz](http://www.Geografiya.uz)



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRUVCHI METODLAR

**Abdullayeva Venera Yeraliyevna**

Navoiy viloyati, Zarafshon shahar


4-maktab geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tavsiyada geografiya darslarida qo'llash uchun foydalilanigan metodlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** geografiya, tafakkur, galaktika, sayohat, xarita, demonstratsiya....

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'limga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida ta'limga muassasasi rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta'sirida amalga oshiradi.

Quyida geografiya darslarida qo'llanadigan bir necha usullarni taqdim etishni joiz topdim.



**“Galaktika bo'ylab sayohat” usuli.** Bu usul “Usul ichida usul” deb nomlanadi. Bunda galaktika bo'ylab sayohatga chiqiladi. Galaktikamizga dars rejasি joylashtiriladi

**“Guruh munozarasi”.** O'qitishning bu usulida o'quvchilarning o'zaro muloqoti va filer almashishga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki sahifa ishlab chiqiladi.

**“Taqnidiy tafakkur”.** Tanqidiy tafakkur usuli o'qituvchi qo'yan masala yoki muammoni o'quvchi o'z fikrini bayon qilish, o'zgalar fikrini qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal etish imkoniyatlariga ega bo'lishga asoslangandir.

**“Demonstratsiya”** Demonstratsiya “ko'rsataman, isbotlayman” degan ma'noni anglatadi. Bu o'qitish usulida o'qituvchi topshiriqni bajarib, o'quvchilarga bu topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi. O'quvchilarga topshiriqni bajarib ko'rish imkonini berish kerak.

**“Tilak” metodi.**

Bu darsda o'quvchilar doira shaklida o'tirib oladilar va oldidagi o'quvchiga “Men sizga chin ko'ngildan omad tilayman, xushkaufiyat, baxt tilayman”, deydi. Shu tariqa bolalar bir-biriga dunyodagi eng yaxshi tilaklarni bildiradi. Chiroqli tilak bildirgan o'quvchiga 5ball bilan baholanadi. Hamma chiroqli tilak bildirib bo'lgandan so'ng o'qituvchi bolalarga yuzlanib:

-Qadrli bolalar, dunyoda barcha xalqlar, millat-u elatlari bir-biriga tilaydigan eng yaxsh, go'zal



tilak nima, bilasizlarmi? Shubxasiz, tinchlik-xotirjamlik, el-yurt farovonligi. Bugun yurtimiz shu aziz ne'mat tufayli taraqqiy etib, qo'llab olamshumul yutuqlarga erishyapti. Barcha baxtli, tinch-farovon hayot kechirmoqda. Bundan ortiq baxt bormi?-deya “Aqliy hujum” uyuşdıradi. O'quvchilar guruhlarga bo'linib, Vatanni ta'riflashadi. Vatan-ota-onamiz, bizni ulg'aytirgan beshigimiz, yashayorgan xonadonimiz, ta'lim ilayotgan maktabimiz, qishlog'imiz, so'lim go'shamiz, mustaqil O'zbekistonimiz, tayanchimiz, iftixorimiz, nurli kelajagimiz, deya o'z fikrlarini bildirishadi.

### **Eng, Eng, Eng... usuli (Litosfera bo'yicha)**

**Bunda o'quvchilar bilan geografiya fanining ajoyibotlari sari sayohat uyuştırıldı**

**Eng katta materik** – Yevroсиyo. Maydoni – 54 600 000 km.kv. Geografik o'rni ancha qulay, shimolda Shimoliy Muz, sharqda Tinch, janubda Hind, g'arbda Atlantika okeanlari o'rab turadi. Materik o'zida Osiyo va Yevropa qit'alarini birlashtiradi. Shuningdek, materik bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoda «rekordsmen» yoxud «super materik» hisoblanadi. **Eng, Eng, Eng... (Gidrosfera bo'yicha)**

**Eng uzun daryo** – Nil. Uzunligi – 6671 km. Daryo Sharqiy Afrika tog'liklaridan boshlanib (Kagera daryosidan) shimolga tomon harakatlanadi va O'rta dengiziga quyiladi.

“Tjadvali” usuli.

**Suvni tejab ishlatalishda nimalarga ahamiyat berish lozim?**

<b>Tarafdoriman</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>1</li> <li>2</li> <li>3</li> <li>4</li> </ul> 	<b>Qarshiman</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>1</li> <li>2</li> <li>3</li> <li>4</li> </ul> 
--	--

### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. O.Mavlonova va boshqalar «Pedagogika», Toshkent 2001-yil.
2. Bahromov Q. Qiziqarli geografik ma'lumotlar. Buxoro, 2004-y



**MAVZULI KARTALASHTIRISH. XALQARO MAVZULI KARTALAR.**

**Boliyeva Sanobar Bahranovna**

Zarafshon shahar 9-umumiyl o'rta ta'lim maktabining  
geografiya fani o'qituvchisi

**Sadakbayeva Venera Serekovna**

Zarafshon shahar 9-umumiyl o'rta ta'lim maktabining  
geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mavzuli kartalarni mazmuni xilma-xil bo'lib, ular har xil maqsadlar uchun yaratilgan. Ba'zi mavzuli kartalar bevosita dalada syomka asosida yaratilib, so'ng generalizatsiya qilinadi va mayda mashtabli kartalar: geologiya, tuproq va o'rmon kartalari tuziladi. Boshqa mavzuli kartalar satsionar kuzatishlar asosida (meteorologik, gidrologik, ba'zan ekologik) tuzilsa, ba'zilari statistic manbalar asosida tuziladi (iqtisodiy, ijtimoiy va aholi kartalari).

**Kalit so'zlar.** Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, BSAM (Bolshoy savetskiy atlas Mira), ekologik, meteorologik, gidrologik, generalizatsiya.

Qishloq xo'jaligi kartalari. Bunday kartalar eng ko'p tarqalgan bo'lib, 2 xil tushunchaga asoslanadi, ya'ni ular 1-qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish kartalari bo'lib, ularning tarqalishi, holati va rivojlanishi hamda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, ularning o'zgarishi ko'rsatilgan bo'ladi. 2-qishloq xo'jaligi resurslari: ulardagi band axoli, ishlab chiqariladigan maxsuloti va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi va hakozolar bo'ladi. Ma'lumki atlaslar tiplarga bo'lib o'rganiladi, ya'ni umumgeografik, sohalar bo'yicha va kompleks atlaslar. Undan tashqari maqsadlar bo'yicha ham bo'lingan: o'quv atlaslari, turistik atlaslar va ma'lumotnomali atlaslar. Sobiq Ittifoqda 1937 va 1940-yillarda chop etilgan ma'lumotnomali BSAM (Bolshoy savetskiy atlas Mira) atlasi shunday atlaslar qatoriga kiradi. 1-jiddida dunyoning tabiiy iqtisodiy va siyosiy geografiyasi o'z aksini topgan, unda kartalar alohida-alohida berilib, foydalanish uchun juda qulaydir. Undan hohlagan kartani atlasdan chiqarib foydalanish mumkin. Atlas Sobiq Ittifoq to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Jumladan, O'zbekiston ham atlasda keng mazmunda aks topgan. Hozirgi kunda Respublikamizda barcha sohalarda shu jumladan aholi yashash joylari, qishloq xo'jaligi korxonlarida axborot texnologiyalari shu darajada rivojlandiki, ularda kadastr ishlarini takomillashtirish davr talabiga aylandi va boshqa sohalarda raqamli xaritalar bilan ishslash va ularning samaradorligini oshirish uchun ham yangi dasturlar va zamonaviy asboblarda amalga oshirilmoqda. Shu jumladan ArcGIS 9.3 dasturida raqamli xaritalar bilan ishslash imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda takomillashtirish maqsadida dasturda raqamli xaritalar bilan ishslash amaliyotga tadbiq qilinmoqda. ArcGIS 9.3 ESRI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu ob'ektlarni geografik ma'lumotlari va atribut ma'lumotlari bilan birgalikda ishslash imkoniyatini beradi. Respublikamiz kadastr xizmatlari darajasini hozirgi zamon talablalrliga mos tarzda tashkil etish uchun, davlat byudjetidan har yili ajratiladigan katta mablag'lar evaziga, mavjud yer maydonlari va ko'chmas mulk ob'ektlarini elektron xaritalarga tushirish va kadastr ma'lumotlarni tezkor qayta ishslash bo'yicha avtomatlashgan tizim joriy etish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda, kadastr ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan tizimi hali yangi va endi shakllanib kelayotgan bo'lganligi bois, bu tizim asosan tor doiradagi davlat maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda. Vaholanki, rivojlangan davlatlarda kadastr xizmatlari nafaqat davlat ehtiyojlari uchun balki ko'chmas mulk ob'ektlariga bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarga kiruvchi turli munitsipal, kamunal xizmat ko'rsatuvchi, marketing, qurilish transport logistik va boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatlarini samaradorliklarini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur kabi davlatlarda kadastr axboroti ko'chmas mulkning manzili, jismoniy xossalari, qaysi egalikdaligi to'g'risidagi umumiyl ma'lumotlar bilan cheklanmasdan, ushbu ko'chmas mulkka qaysi tomondan shamol, yomg'ir, quyosh kabi tabiiy xodisalar ta'sir etishi va qanday foyda olish mumkinligi ham belgilanadi. Masalan, qaysi ko'p qavatli uylarning yonida reklama taxtalarini o'rnatib ijara berishdan daromad olish yoki quyosh batareyalarini o'rnatish imkoniyatini mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar ham kadastr hisobotlarida aks ettiriladi. Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan, huquqiy jamiyat qurish bo'yicha izchil siyosat olib borar ekan, aholi va tashkilotlar tomonidan ularga biriktirilgan yer maydonlari va ko'chmas mulklardan samarali va oqilonan foydalanishlari va ulardan undirladigan



soliqlar solinishiniadolatli tashkil etish uchun davlat tomonidan kadastr xizmati infratuzilmasini rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kadastr ma'lumotlarining takomillashtirlishi, kadastr hisobotlarida aks ettirilgan yashash joylardagi aholi turmush tarzini yaxshilash va ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor bahosini ob'ektiv baholash imkonini beradi. O'zbekiston ham rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, milliy kadastr xizmatini rivojlantirishga katta etibor qaratmoqda. Shu bois, aholi yashash joylari kadastrini yuritishni avtomatlashgan tizimini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan kadastr xizmatlari sifati va tezligini oshirib, keng qamrovli ehtiyojlarga javob berishini ta'minlash orqali ushbu xizmatlardan foydalanuvchilar qatlamin oshirishga xizmat qiladi va kadastr sohasi rivojiga davlat byudjet tomonidan ajratilayotgan mablag'larni tejash imkonini yaratadi. Qishloq aholi yashash joylari kadastrini yuritishni avtomatlashgan tizimini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan kadastr xizmatlari sifati va tezligini oshirib, keng qamrovli extiyojlarga javob berishini ta'minlash orqali ushbu xizmatlardan foydalanuvchilar qatlamin oshirishga xizmat qiladi va kadastr sohasi rivojiga davlat byudjet tomonidan ajratilayotgan mablag'larni tejash imkonini yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirzaliyev T, Safarov E.Yu, Egamberdiyev A, Qoraboyev J.S “Kartashunoslik” Toshkent – 2012
2. Safarov E.Yu, Musaev I.M, Abduraximov X.A. “Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari” Toshkent – 2009
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



**“DARYOLAR” MAVZUSINI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O’QITISHGA  
DOIR**

Taniyeva Guli Fayzullayevna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani  
68 – maktab geografiya fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada daryolar mavzusining ta’lim texnologiyalari asosida o’qitishga doir uslublar haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** daryolar, ko’l va dengizlar, chuchuk suv, o’zan.

Daryolar mavzusi haqida to’liq ma`lumotlarga ega bo`lish uchun suv resurslaridan foydalanish va mo`zlik va qorliklar haqida ham yoritishni joiz deb bildik. Zero, “O’zbekistonning suv boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish” mavzusi 7 – sinf da o`qitiladi.

O’zan aniq ko`rinishga ega bo`lgan va doimiy suv oqimi kuzatila boshlanadigan joy daryo boshi deb yuritiladi. Agar daryo ikki soyning qo`shilidan hosil bo`lsa, daryo boshi sifatida ular qo`shilgan joy qabul qilinadi. Daryoning o`zunligi esa katta irmoq bilan qo`shib hisoblanadi.

Har qanday daryoni, uning o`zunligi bo`yicha, bir-biridan faqr qiladigan umumiyligiga qarab quyidagi uch qismiga – yuqori oqim, o`rta oqim va quyi oqimlarga bo`lish mumkin.

Tog` daryolarining yo`qori oqimlari uchun nisbatan katta nishabliklar xos bo`lib, shu tufayli suvning oqish tezligi ham ancha katta bo`ladi. Bu esa o`z navbatida o`zanda eroziya jarayonining jadal borishiga olib keladi.

Daryoning o`rta oqimida uning nishabligi va suvning oqish tezligi kamayadi. Eng muhim, daryoning suvliligi ortadi.

Daryoning quyi oqimida nishablik va suvning oqish tezlishi yanada kamayadi. Bu qismda tezlik kamayishi natijasida oqiziklar cho`ka boshlaydi. Aksariyat hollarda daryo uzunligi bo`yicha undagi suv miqdori kamaya boradi.

Daryo ko`lga, dengizga yoki ikkinchi bir daryoga qo`shiladigan joy uning quyilishi deyiladi. Ko`llarga, dengizlarga quyiladigan yirik daryolarning quyilish qismida ular tarmoqlanib, o`zanning murakkab shakllari-deltalar hosil qiladi. Bunga dengiz yoki ko`ldagi suvning to`lqinlanishi, ko`tarilishi, pasayishi sabab bo`ladi.

Qurg`oqchil xududlarda esa daryolar ba`zan quyilish qismiga yetib bormaydi. Bunda daryo suvining katta qismi bug`lanishga, o`zan tubiga shimilishga va asosan sug`orishga sarf bo`ladi. O`lkamizdagи ko`pgina daryolar (Murg`ob, Tajan, Zarafshon, Qashq adaryo) ni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Suvayrig`ichlar, daryo xavzasasi va suv to`plash maydoni. Yer sirtiga yoqqan yog`inlardan hosil bo`lgan suvni ikki qarama-qarshi yunalishdagi yonbag`irlar bo`yicha taqsimlaydigan eng baland nuqtalar o`rni suvayrigch chizig`ini hosil qiladi.

Yer kurrasining quruqlik qismiga yoqqan yog`inlardan hosil bo`lgan yuza suvlarni jahon suvayrig`ich chizigi quyidagi ikki yo`nalishda taqsimlaydi:

1. Tinch-Xind okeanlari yo`nalishida;
2. Atlantika –Shimoliy Muz okeanlari yunalishida.

Jahon suvayrig`ich chizig`i Janubiy Amerikadagi Gorn burnidan boshlanib, And Kordilera tog`laridan Bering bo`g`oziga, undan Chukotka tizmalari, Anadir yassi tog`lari, Gidan, Stanovoy, Yablonovoy, Markaziy Osiyo tog`liklari, Tyanshan, Pomir, Kopettag`, Arabiston yarim orolining shimoliy qismi Afrikada esa meridian yunalishi bo`yicha o`tadi. Materikning janubiy qismiga yaqinlasha borganda Xind okeani qirg`oqlari tomon buriladi (Dunyo tabiiy xaritasiga qarang).

Jahon suvayrig`ichchizig`idan tashqari nisbatan kichik o`lchamlardagi quyidagi suvayrig`ichlari mavjud.

Ichki suvayrig`ichdar – materiklarga yoqqan yog`inlardan hosil bo`lgan suvni okeanga tutash (chekka xudud) va berk (ichki oqimli) havzalar bo`yicha taqsimlaydi. Orol-Kaspiy berk havzasini chegaralaydigan suvayrig`ich chizig`i ichki suvayrig`ichlarga misol bo`ladi;

Okean va dengiz suvayrig`ichlari-suvni okeanlar va dengizlar havzalari bo`yicha taqsimlaydi.

Tog`li xududlarda suvayrig`ichlar tog` cho`qqilarining eng baland nuqtalaridan o`tadi va u yaqqol ko`rinadi. Tekislik xududlarda esa, buning aksincha, suvayrig`ich chizig`ini o`tkazish ancha murakkabdir.



Yo`qorida aytib o`tilganidek, daryolar va yer osti va yer osti suvlari hisobiga to`yinadi. Shunga mos ravishda yer osti va yer osti suvayirg`ichlari bo`ladi. Ular ayrim hollarda bir-biri bilan mos kelmaydi, ya`ni bir tekislikda yotmaydi.

Yer sirtining daryo sistemasi joylashgan va suvayirg`ich chiziqlari bilan chegaralangan qismi daryo havzasi deyiladi.

Daryo sistemasi suv yig`adigan maydon suv to`plash maydoni deyiladi.

Ko`pchilik hollarda daryo xavzasasi va suv yig`ilish maydoni mos tushadi. Lekin, ayrim hollarda suv yig`ilish maydoni daryo havzasi maydonidan kichik bo`ladi. Masalan, Ob bilan Irtish daryolari orasidagi kichik daryochalar bosh daryoga yetib borolmaydi, natijada ular suv tuplaysidan maydon asosiy daryoga suv bermaydi. Xaritaga e`tibor bilan qaralsa, bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

Daryo havzasining tabiiy-geografik xususiyatlari. Yer yuzasidagi har bir daryo havzasi o`ziga xos bo`lgan alohida xususiyatlarga ega bo`ladi. Bu o`ziga xoslik ma`lum tabiiy-geografik omillar bilan aniqlanadi.

Daryo havzasining geografik o`rni. Bu xaqda gap ketganda, daryo havzasi joylashgan xududning eng chekka janubiy va shimoliy nuqtalari, eng chekka g`arbiy va sharqiy nuqtalari nazarda tutiladi. Shu ma`lumotlarga ega bo`lsak, daryo havzasining qaysi materikda, qaysi kenglikda, qaysi mamlakat xududida joylashganligi haqida dastlabki tasavvurga ega bo`lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ta`lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2008. №2
2. “Vodiy va Vohalar: Tabiat, Aholisi Xo`Jalaigi Andijon -2012

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000